QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI
AMUDARYO TUMANI HOKIMI
Q A R O R I

QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ
ÁMIWDÁRYA RAYONÍ HÁKIMI
S H E S H I M I

2023 - yil 11 - oktabr 159-13-181-Q/23 Amudaryo tumani hokimligi

Amudaryo tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi qarori va tuman hududida joylashgan korxona, tashkilot va muassasalarda ish o‘rinlarining eng kam miqdorini belgilash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6,25-moddalariga asosan **qaror qilaman:**

1.Tumandagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarning eng kam miqdorini belgilash bo‘yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq, 2024-yilda mazkur toifadagi shaxslar uchun ish joylarining eng kam miqdori belgilangan korxonalar va tashkilotlar ro‘yxati 2-ilovaga asosan tasdiqlansin.

2. Qayd qilingan korxonalar, tashkilotlar va muassasalar quyidagi ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynaladigan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo‘lmagan shaxslar toifalari uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yishni ta’minlasin:

o‘n to‘rt yoshgacha bolalari bo‘lgan va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun 38 % (29 kishi);

umumiy o‘rta va o‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlarga, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 47% (36 kishi);

safarbarlik chaqiruv zahirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan

shaxslar uchun 3% (2 kishi);

nogironlar uchun 6% (5 kishi);

Kambag’allikni qisqartirish va bandlikka ko’maklashish bo’limi ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan, pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun 3% (2 kishi);

jazoni o‘tash muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra tibbiy yo‘sindagi majburlov choralariga tortilgan shaxslar uchun 4% (3kishi)

3. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ish bilan ta’minlash uchun 2023-yil yakunlashidan 10 kun oldin kvota ish joylari umumiy miqdorining kamida 25 foizi uchun, 2024-yilning 10 aprelidan kechikmay ish joylarining qolgan 75 foizini barpo etish (ajratish yoki band qilib qo‘yish) to‘g‘risidagi, ya’ni har bir kvota toifasi bo‘yicha ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar, mutaxassisliklar kesimidagi ma’lumotlarni va qaror bo‘yicha chiqarilgan buyruq nusxalarini Kambag’allikni qisqartirish va bandlikka ko’maklashish bo’limi taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5 dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish to‘g‘risidagi Nizom”ga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlarini tuman hokimi tomonidan belgilangan miqdordan ortiqcha tashkil etgan tashkilotlar ushbu ish o‘rinlarini tashkil etishga sarflangan mablag‘larining bir qismini Kambag’allikni qisqartirish va bandlikka ko’maklashish bo’limi bilan tuzilgan shartnoma asosida Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplash huquqiga ega ekanliklari inobatga olinsin.

5. Muhtojlar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha tuman hokimining ushbu qarori bajarilmagan taqdirda, shuningdek, ularning ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlik belgilanganligi ogohlantirilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining 2019-yil 10-maydagi 19-2019-B-son nizom asosida Ijtimoiy ehtiyojmand aholi

qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida haq to’lash to‘g‘risida subsidiyalar ajratilishi belgilansin.

7. Tuman Kambag’allikni qisqartirish va bandlikka ko’maklashish bo’limi (M.Boltayev) bir hafta muddatda mazkur qarorni tegishli korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga yetkazsin hamda uning bajarilishi ustidan qat’iy nazoratini ta’minlasin.

8. Tuman hokimining 2022-yil 15-dekabrdagi 262-13-181-Q/22-sonli “Amudaryo tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish to‘g‘risida”gi qarori 2023-yil 31-dekabrdan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. Ushbu qaror rasman e’lon qilingandan keyin 2024-yil 1-yanvardan kuchga kirishi belgilansin.

10. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari R.Salayev zimmasiga yuklatilsin.

Amudaryo tumani hokimi v.b. **S.XOJAMETOV**

Amudaryo tuman hokimining
2023-yil 11-oktabrdagi
159-13-181-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Tumandagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarning eng kam miqdorini belgilash bo‘yicha komissiya

TARKIBI

1	Amudaryo tuman hokimining birinchi o‘rinbosari	R.Salayev
2	Amudaryo tuman hokimligi Tashkiliy-nazorat guruhi rahbari	Sh.Bo‘ranov
3	Amudaryo tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari	B.Baltabayev
4	Amudaryo tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi Davlat mehnat huquq inspektori	R.Shomuratov
5	Amudaryo tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi ishga joylashtirish va ishsizlarni hisobga olish bo‘yicha bek ofis bosh mutaxassisi	B.Saparbayev

Amudaryo tuman hokimining
2023-yil 11-oktabrdagi
159-13-181-Q/23-son qaroriga
2-ilova

2024-yilda mazkur toifadagi shaxslar uchun ish joylarining eng kam miqdori belgilangan korxonalar va tashkilotlar ro‘yxati

T.p.	Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlasha olmaydigan shahslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarini belgilash taklif qilayotgan korhona va tashkilotlar ro'yhati (korhona va tashkilotlar nomi)	ishlovchilar soni	Kelgusi yilga zahiraga qo'yish taklif etilayotgan ish o'rinlari soni	shundan						
				A	B	D	E	F	G	J
1	AMUDARYO TUMAN TIBBIYOT BIRLASHMASI	2002	18	5	10		2	1		
2	QIPCHAK O'RMON XO'JALIGI	55	1						1	
3	Amudaryo tumani Davlat Sanitariya Epidemiyalogiya Nazorat Markazi	97	4	1	2		1			
4	AMUDARYO TUMANI YO’LLARDAN FOYDALANISH UNITAR KORXONASI	120	4	1	1	1			1	
5	TUMAN OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI	191	7	2	2	1		1	1	
6	55-sonli umumiy o’rta ta’lim maktabi	83	2	1	1					
7	24-sonli umumiy o’rta ta’lim maktabi	43	2	1	1					
8	3-sonli umumiy o’rta ta’lim maktabi	94	2	1	1					
9	47-sonli umumiy o’rta ta’lim maktabi	52	2	1	1					
10	33-sonli umumiy o’rta ta’lim maktabi	68	2	1	1					
11	27-sonli umumiy o’rta ta’lim maktabi	79	2	1	1					
12	85-sonli umumiy o’rta ta’lim maktabi	46	2	1	1					
13	4-sonli umumiy o’rta ta’lim maktabi	49	2	1	1					

14	25-sonli umumiy o’rta ta’lim maktabi	38	2	1	1					
15	15-sonli umumiy o’rta ta’lim maktabi	109	3	1	2					
16	46-sonli umumiy o’rta ta’lim maktabi	82	2	1	1					
17	35-sonli umumiy o’rta ta’lim maktabi	82	2	1	1					
18	84-sonli umumiy o’rta ta’lim maktabi	54	2	1	1					
19	8-sonli umumiy o’rta ta’lim maktabi	61	2	1	1					
20	10-sonli umumiy o’rta ta’lim maktabi	69	2	1	1					
21	9-sonli umumiy o’rta ta’lim maktabi	112	3	1	1		1			
22	21-sonli musiqa maktabi	40	2	1	1					
23	43-sonli maktabgacha ta’lim muassasasi	42	2	1	1					
24	16-sonli umumiy o’rta ta’lim maktabi	127	3	1	1		1			
25	2-sonli kasb-hunar maktabi	86	2	1	1					
JAMI		**3881**	**77**	**29**	**36**	**2**	**5**	**2**	**3**	**0**

A) 14 yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni

B) Umumiy o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining davlat grandlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun band

D) Safarbarlik chaqiriq zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekistan Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli xarbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar

E) Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni

F) Pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni

G) Jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun